

UMUMTA'LIM MAKTABLARINI BOSHQARISHDA TA'LIMNI QO'LLAB QUVVATLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

ChDPU magistranti Masharipov J.R.

ChDPU professori i.f.n. Ortiqov O.A.

Email: masharipovjasur60@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarini boshqarishda ta'limni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarining kontseptual asoslarini o'rganish, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Umumta'lim maktablarini boshqarishda ta'limni qo'llab-quvvatlashning asosiy tamoyillari, samaradorligini oshirish yo'llari va innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim sifati va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, maktab rahbarining boshqaruvdagi o'rni va ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Umumta'lim maktablari, ta'limni boshqarish, ta'limni qo'llab-quvvatlash, innovatsion ta'lim, raqamli texnologiyalar, ta'lim sifati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, menejment-boshqaruv.

Abstract: The article analyzes the study of the conceptual foundations of educational support technologies in the management of secondary schools, innovative approaches, integration of digital technologies into the educational process. In the management of secondary schools, recommendations are given on the basic principles of Educational Support, ways to improve efficiency and the prospects for improving the quality of education and management processes using innovative technologies. At the same time, the role of the head of the school in management and the benefits of using information and communication technologies in the educational process are highlighted.

Key words: General Education Schools, Education Management, educational support, innovative education, digital technology, educational quality, information and Communication Technology, Management.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida umumta'lim maktablarini samarali boshqarish va ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirish va ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, umumta'lim

maktablarini boshqarishda ta'limni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarining kontseptual asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, xususan, Sun'iy intellekt AI, virtual haqiqatlar VR kabi ilg'or texnologiyalar ta'lim jarayonining sifatini oshirishga va o'quv materiallarini real hayotga yaqin tarzda tushuntirishga imkon bermoqda. Ushbu texnologiyalar ta'limni yanada interfaol, qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, umumta'lim maktablarini boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va ta'lim sifati monitoringini olib borish imkoniyati yaratiladi.

Umumta'lim maktablarini samarali boshqarish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maktab rahbarining boshqaruvdagi roli nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda, balki innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, pedagogik jamoani rivojlantirish va o'quvchilarning yutuqlari uchun qulay muhit yaratishda ham juda muhimdir. Demak, boshqaruv va boshqarish jarayoni ham maktablarda muhim rol o'ynaydi. Boshqaruv atamasi ingliz tilida "Management" so'zi bilan ifodalanadi va strategik boshqaruvda esa lotinchada "strategious" ya'ni general san'ati-qadimgi yunonlar janglarda sarkarda taktikasini qo'llaganligi tufayli g'alabani qo'lga kiritishgan deya e'tirof etiladi. Mazkur atama bugungi rahbar faoliyatiga ham bog'liq bo'lib qoldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan boshqaruv terminlarning ishlatilishining asosiy mohiyati shundaki, iqtisodiyot hamda jamiyatning keskin o'zgarishi oqibatida ta'lim tendensiyalari ham muqobil ravishda transformatsiya qilish jarayoniga kelib qoldi. Bu o'z o'zidan zudlik bilan ta'lim boshqaruv jarayonida optimal qarorlar va yechimlarni qabul qilish kompetensiyasini shakllantiradi. Ya'ni hozirgi ta'lim muassasa rahbarlarimizning qabul qilgan qarorlari bilan ta'lim muassasalari va maktablarga o'zgartirishlar kiritiladi. Aynan aniq muammo esa mana shu ta'lim va ijtimoiy voqea hodisalar jarayonida rahbarning qabul qilgan qarorlari natijasida tahlil qilinadi. Agar qabul qilingan qaror chindan ham zamonaviy yechimga ega bo'lsa u holda ta'lim muassasalari hamda maktablar yanada qad ko'taradi, fan-texnika ta'lim rivojlanmoqda, mabodo mazkur qaror talabga javob bermasa aksincha maktab va ta'lim muassasalarida kamchiliklar va barqarorliklar o'laroq nomutanosibliklar yuzaga keladi. Shuni ham yodda tutish zarurki, bugungi raqamli global muhitda ta'lim jarayonini isloh qilish hamda ta'lim texnologiyalaridan uzviy ravishda foydalanish maktab va ta'lim muassasalarini rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Ta'lim muassasalari jumladan, umumta'lim maktablarni samarali boshqarish ta'limni qo'llab quvvatlash texnologiyalarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun avvalo boshqaruv tizimlari va maktablarda rahbarlar tomonidan tuzilgan konsepsiyalarga amal qilishgina samara beradi.

Konsepsiyaga binoan ta'lim va maktab rahbarlariga boshqarish vazifasi yuklatilgan bo'lib ta'lim jarayonida turli xil boshqaruv usullari va me'todlarni qo'llashni tavsiya etadi. Mazkur boshqaruv vaziyatiga bir nazar tashlasak: Boshqarish vazifasi mohiyatli zaruriy, takrorlanuvchi xarakterli majmuyi bo'lib, yagona mazmun va maqsadga qaratilgan. Bunda boshqarish faoliyati bir-biriga bog'liq va alohida vazifalarni o'z ichiga oladi, bunda boshqarish vazifalari rejalashtirish, tartibga solish, tashkil etish, sozlash, muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish, izlash, faollashtirish, hisob-kitob kabi harakatlar orqali amalga oshiriladi. Boshqarish vazifalarini amalga oshirish uchun ta'lim muassasasida boshqarish tizimini tashkil etiladi. Bu asosan boshqarish subyekti direktor oliy o'quv yurtlarida esa rektor o'z navbatida boshqarish bo'g'inlarini tashkil etadi. Shu bo'g'inlar orqali u boshqarish obyektiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limni boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmasini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma'lum foyda keltirgan. Strategik menejment sohasidagi ishlarni tahlil qilish bunday boshqaruvning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga, «strategiya» tushunchasining asosiy xususiyatlarini va uning «rivojlanish» va «prognozlash» tushunchalari bilan bog'liqligini aniqlashga imkon berdi.

Ta'limni qo'llab-quvvatlash texnologiyasining kontseptual asoslari quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

Boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari – raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali maktablarni boshqarishda strategik rejalashtirish va monitoring tizimlarini takomillashtirish.

Pedagogik samaradorlik – ta'limni individualizatsiya qilish va differensial yondashuv asosida o'quvchilarning qobiliyatlariga mos keladigan ta'lim sharoitlarini yaratish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish – maktab boshqaruvida avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilish orqali ta'lim jarayonining monitoringi va tahlilini kuchaytirish.

Ta'lim tizimini rivojlantirishni boshqarish texnologik, pedagogik, tashkiliy innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha ta'sirlar tizimini kerakli tendensiyalarni ta'minlaydigan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan inqiroz va qarama-qarshiliklarni oldindan ko'ra oladigan va bartaraf etadigan, tizimning yaxlitligini ta'minlaydigan tarzda tashkil etishni nazarda tutadi.

Umumta'lim maktablarida ta'limni qo'llab-quvvatlashning strategik asoslari ta'lim tizimini boshqarishning uzoq muddatli maqsadlari va vazifalariga asoslanadi. Bu asoslar maktab rahbariyatining ta'limni boshqarish, o'qituvchilarning malakalarini oshirish va o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Ta'limning maqsadlari va vazifalari: Ta'limni boshqarishning kontseptual asoslaridan biri — ta'lim tizimining aniq maqsadlarini belgilashdir. Bu maqsadlar o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni berish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, shaxsiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ta'limni boshqarishda rahbarlik: Umumta'lim maktablarida ta'limni boshqarishning strategik asoslaridan biri maktab rahbariyatining yetakchilik rolini amalga oshirishdir. Bu o'qituvchilarni samarali boshqarish, ularning malakasini oshirish va o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini yaxshilash uchun zarur bo'lgan qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Rejalashtirish va monitoring: Ta'lim tizimining samarali ishlashi uchun maktablar ta'lim jarayonini rejalashtirish va monitoring qilishni ta'minlash kerak. Bu o'quvchilarning yutuqlarini kuzatish, ularning bilim darajasini aniqlash va ta'lim jarayonini doimiy ravishda optimallashtirish imkonini beradi.

Umumta'lim maktablarini boshqarishda ta'limni qo'llab-quvvatlashning kontseptual asoslari pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etadi va ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Faol ta'lim- ta'limni boshqarishda faol ta'limni qo'llash o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va o'qituvchilarga ularning ehtiyojlariga mos yondashuvni tanlash imkoniyatini beradi.

Individual yondashuv: O'quvchilarning o'zlashtirish darajalari turlicha bo'lgani uchun, ta'limni boshqarishda individual yondashuvni qo'llash zarur. O'qituvchilar o'quvchilarning qobiliyatlariga mos ravishda turli metod va texnikalarni qo'llashlari kerak.

Differensiyalashgan ta'lim- har bir o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlari boshqacha bo'lishi mumkin. Shuning uchun, maktablarda ta'limni differensiyalashgan usullar yordamida tashkil etish kerak. Bu o'quvchilarning turli darajadagi bilim va ko'nikmalarini hisobga olishga imkon beradi.

Xulosa

Umumta'lim maktablarini boshqarishda ta'limni qo'llab-quvvatlash texnologiyasining kontseptual asoslari zamonaviy pedagogika va boshqaruv tamoyillariga asoslangan holda shakllantirilishi zarur. Ta'lim jarayonini samarali

tashkil etish va uni innovatsion texnologiyalar bilan boyitish ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarini boshqarishda ta'limni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarining kontseptual asoslarini ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish va o'quvchilarning kelajak kasbiy tayyorgarligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdeev R.F. Boshqaruv mexanizmi, uning genezisi va tizimni tashkil etuvchi roli // Falsafiy fanlar. - 1990. - No 4. - S. 105-113.
2. Afanasiev V.G. Dastur-maqсадlarni boshqarish; Jamiyatni ilmiy boshqarish; nashr 2 / ed. OK. Naumenko, G.P. Juravleva, V.V. Grigoryev. - M., 1978. - S. 45-87.
3. Davydov V.V. Rivojlantirib ta'lim nazariyasi; RAO, psixo. in-t, xalqaro
4. Sh.B. Xolmuratov, Sh.A.Xolmurodov, N.N.Bazarbayevna- UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA SAMARALI BOSHQARISHNI TASHKIL ETISH YO'LLARI, N.B.Nuraliyeva, 2023 © «Poytaxt exclusive» nashriyoti, 2024. 8-10, 20-25, 62-66.
5. / <https://www.menejment.uz/elib/menejment.pdf>
6. Abduqodirov A., Jo'raev M. Zamonaviy ta'lim boshqaruvi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Murodov S., Karimov N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rni. – Samarqand: Zarafshon, 2019.
8. Anderson, J. & Dron, J. Three Generations of Distance Education Pedagogy. – International Review of Research in Open and Distance Learning, 2021.

Internet saytlari:

Cyberleninka.ru	Wikipedia.org
Menejment.uz	Chatgpt.com
Aniq.uz	Google.com
Edu.uz	Scholar.google.com